



## SYSTEMATIC IMPROVEMENT OF CLASS TEACHER'S ACTIVITY IN PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL STUDY OF STUDENTS

Abdumuratova Durdona Mamayusufovna

She is a primary school teacher at Denau District 36th General Secondary School.  
Uzbekistan.

### Annotation:

This article provides detailed information on how to systematically improve the behavior and skills of each teacher in dealing with students, raising the level of activity of the class teacher in the pedagogical and psychological study of students. Relevant conclusions have been made on the basis of research in this area.

**Keywords:** ethics, pedagogy, skill, pedagogical-psychological, discipline, personality of the child

Bugungi davrda o'quv muassasalari va ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga juda katta ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalar qo'yilmoqda. Shuning uchun ham yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirish, g'oyaviy va siyosiy jihatdan chiniqtirish, yuksak axloqiy fazilatga ega qilish, ularni mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlash lozim. Bu vazifalarni amalgam oshirish va hal qilishda esa sinf rahbarining o'rni benihoya katta. Chunki u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalgam oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Sinf rahbari ta'lim muassasasida "universal pedagog" bo'la olishi lozim. Buning uchun esa sinf rahbaring ish faoliyati, vazifalari va ularga qo'yiladigan talablar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish joiz. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Biz o'z iste'dodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak", degan so'zlari buning yorqin dalilidir. Kelajagimiz poydevori bilim darajalarida yaratilar ekan, ya'ni yurt kelajagi farzandlarga bog'liq ekan, buning uchun har qaysi ota-ona, murabbiy, ustoz har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'ra bilishi zarur.

- Pedagog, o'quvchilarning oilada va guruhda o'zini tutishlarini, jamoaga birlashtirish maqsadida guruh faollari faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganib o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni o'z-o'zini boshqarish jamiyatlariga birlashtirishi,



- doimiy ravishda o'quvchilarning ta'lim-tarbiya yuzasidan, ularning ota-onalari bilan aloqada bo'lib turishi,
- o'quvchilarning yashash joyiga tashrif buyurib, sog'ligi va yashash sharoitini yaxshilash uchun zarur yordam ko'rsatib, mustaqil ishlari va ko'ngilli xordiq chiqarishlarini uyushtirishi
- bundan tashqari, guruh rahbari faoliyati rejali tashkil qilinishi lozim.

Sinf rahbrining faoliyati kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgan.

Bu faoliyatning natijlari tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, harakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Agar tarbiyachi pedagog nimaga intilayotganini ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi.

Shuning uchun tarbiya faoliyati maqsadlarini aniq belgilab olish lozim. Sinf rahbari sinfga qabul qilib olgandan keyin uning birinchi ishi, odatda, o'quvchilarni o'rganish bilan bog'liq. Bu ish uning o'zi berkitilgan sinfdagi butun ish faoliyati mobaynida davom etadi va uning tarbiyaviy ish sistemasida muhim bir tomonni tashkil etadi.

Sinf rahbari o'quvchilarning pedagogik-psixologik tomondan o'rganish uchun quyidagilarni bilishi kerak:

- Har bir o'quvchini shaxs sifatida o'rganish
- O'quvchilarning sinfdagi tarbiyalanishini tashkil etishi
- O'quvchilarning bilim va tarbiyasini oshirish va ularning tartib-intizomini mustahkamlashi
- Sinfdagi darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishi
- Fan o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarini birlashtirishi
- O'quvchilarning ota-onalari bilan ishlashi
- Sinf rahbari fan o'qituvchilariga nisbatan ko'p qirrali ishlarni bajarishi lozim

Sinf rahbari o'quvchilarni tabiiy hayot va o'quv faoliyatida o'rganadi. Avvalo, sinf rahbari o'ziga berkitilgan sinf o'quvchilarining ota-onalari va tevarak-atrofidagi kishilar bilan kirishadigan munosabatlarini o'rganishi juda muhim. O'quvchilarni kundalik hayot tarzida va o'quv faoliyati davomida ham organish maqsadga muvofiq. Albatta, sinf rahbari o'quvchilar shaxsini, ular xulq-atvorini, harakterini aniqlash, o'rganishda shu muassasa psixologi bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim.



Bunda ota-ona, mahalla qo'mitalarining ham o'rni katta. Bolalarga tarbiyaviy ta'sir etish omillarini aniqlash, o'quvchiga individual munosabatda bo'lish, tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni tarbiyalashda o'quvchilarga ma'lum bir talablar qo'yish orqali erishiladi. Sinf rahbari o'z o'quvchilarini bilmasa, u o'quvchilarga yondashishda, pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikalarini tanlashda katta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Shu sababdan ham sinf rahbari o'quvchilar shaxsini balki jamoani ichki muhitini ham bilishi zarur.

Bunda sinf raxbari

1. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hamisha va hamma holda hisobga olmoq zarur, o'quvchilarga individual yondashish bu har qaysi o'quvchining xususiyatiga individual moslashish emas. Bu eng avvalo har qaysi o'quvchining individual xususiyatini, uning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yanada samarali yo'lini faol qidirib topish. O'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga individual yondashish har qaysi o'quvchini o'z nazar-e'tiborida tutishdan, uning xususiyatlarini bilishdan, uning ijobiy xislatlariga tayanishdan, unga o'g'ir vaziyatlarda muntazam yordam ko'rsatib borishdan va uni yaxshi xatti-harakatlari uchun rag'batlantirib borishdan iboratdir.

2. O'quvchilarni o'rganib ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchini o'rganish pirovard maqsad emas, balki ularga ta'lim-tarbiya berish uchun zaruriy shart-sharoitdir. O'quvchilarni o'rganish borasidagi ishlar shaxsini kamol toptirishning tabiiy tarzda faol ishtirok etishi bilan, o'quvchilarda zaruriy ma'naviy xislatlari va harakterini tarkib toptirish bilan organish davrida qo'shilib ketadi. Sinf rahbari o'quvchilar xulq-atvoridagi ijobiy xislatlarni rivojlantirish, salbiy xislatlarga barham berishni "loyihalashtiradi".

3. O'quvchilarni o'rganishni rejali tarzda va muntazam olib boorish darkor. O'quvchi xulq-atvoridagi yakka-yarim uchraydigan va tasodifiy voqealarni emas, balki uning shaxsida juda ko'p uchraydigan tipik xususiyatlarni o'rganmoq kerak. Shuni hisobga olish kerakki, o'quvchilar har doim o'sib-rivojlanib boradi va shu bilan birga ularning qiziqishlari ham domiy o'zgarib turadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni faqat rivojlanishga o'rgatmoq zarur.

4. O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish. O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali maslahatga va jamoat ishiga jalb qilish lozim.



O'quvchilarning oqituvchi, o'quvchilar jamoasi, ota-onalar va tevarak-atrofdagilar bilan krishadigan munosabatlarini o'rganish lozim. Bu munosabatlart jarayonida shaxs yanada to'la ochiladi. O'rganishda turli metodlar va usullardan foydalanish mumkin. Ota-onalar bilan suhbat jarayonlari ham bolani o'rganishga yordam beradi.

5. O'quvchilarni o'rganob ularni hayoti va turmush sharoiti bilan tanishish. O'quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutuq va kamchiliklari, ta'lim-tarbiya olish jarayonida uy sharoiti, tashqi muhit ham inobatga olinadi.

O'qituvchi bola shaxsining alohida xususiyatini emas, balki butun shaxsini o'rganmog'i darkor. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarning turli bosqichlarida o'quvchi xulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rganishga e'tiborr qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun, dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish, o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini insholar mavzularini tanlab olish zarur.

Xulosa o'rnida aytganda o'quvchilar jamoasi mustaqil tashkilotdir, ammo u pedagogik rahbarlikka muhtoj. O'quvchilarni o'z holiga tashlab qo'yish ham, ayni vaqtda bolalar jamoasiga nisbatan ma'muriyatchilik ham, buyruqbozlik yo'lga o'tib olish ham mumkin emas. Birinchi holda, sinf rahbari bu ishlardan umuman chetlashib, o'quvchilar bilan aloqaning susayishiga yo'l qo'ysa, ikkinchi holda u tazyiq yo'lga o'tib, o'quvchilar mustaqilligini yo'qqa chiqaradi. Sinf rahbarining bosh vzaifasi, bolalar jamoasini faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o'quvchilar tashabbuskorligini o'stirish, sinf jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iborat. O'quvchilarni jamoa va jamoada tarbiyalash- tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. O'quvchi shaxsini shakllantirishda jamoa yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa o'quvchining jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997y.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent, 1998 y.
3. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991 y.